



**BACHADON MIOMASINI ANIQLASHDA MRTNING
AHAMIYATI**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

2-son Davolash fakulteti talabasi

Bahriddinova Bahor Uchqunjon qizi

bahorbaxriddinova5@gmail.com

Dolzarbli Bachadon miomasi (leiomioma) reproduktiv yoshdagi ayollar orasida eng keng tarqalgan benign o'smalardan biri bo'lib, turli epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra 35 yoshdan yuqori ayollarning 60–70% gacha qismida aniqlanadi. Mazkur patologiya ko'pincha asemptomatik kechishi bilan birga, ayrim hollarda menorragiyalar, dismenoreya, kichik tos sohasida og'riq sindromi hamda bepustlik bilan namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bachadon miomasining adenomioz va leiomiosarkoma kabi patologiyalar bilan klinik hamda ultratovush belgilarining o'xshashligi differensial diagnostikani murakkablashtiradi. Natijada noto'g'ri tashxis qo'yish va noadekvat davolash xavfi ortadi.

Zamonaviy radiologiyada magnit-rezonans tomografiya (MRT) yuqori yumshoq to'qimalar kontrasti, multiplanar vizualizatsiya imkoniyati va invaziv bo'lmaganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli MRT bachadon miomasini aniqlash va uning morfologik xususiyatlarini baholashda yuqori diagnostik qiymatga ega bo'lgan usul sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqsadi Tadqiqotning maqsadi bachadon miomasini aniqlashda MRTning diagnostik imkoniyatlarini kompleks baholash, uning ultratovush tekshiruviga



nisbatan ustun jihatlarini aniqlash hamda differensial diagnostikadagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

Materiallar va usullar Mazkur ishda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili, klinik kuzatuvlar va tasviriy diagnostika natijalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. MRT tekshiruvlari T1- va T2-og'irlikdagi tasvirlar, shuningdek kontrast kuchaytirish yordamida amalga oshirildi.

Miomatoz tugunlarning lokalizatsiyasi (submukoz, intramural, subseroz), o'lchami, soni, signal intensivligi hamda ichki strukturasidagi o'zgarishlar baholandi. Olingan natijalar ultratovush tekshiruvlari bilan solishtirilib, diagnostik aniqlik darajasi va differensial diagnostikadagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

Natijalar Tahlillar shuni ko'rsatdiki, MRT bachadon miomasini aniqlashda yuqori sezgirlik (94–99%) va spetsifiklik (70–95%) ko'rsatkichlariga ega. MRT yordamida miomatoz tugunlarning aniq lokalizatsiyasi va morfologik tuzilishi yuqori aniqlikda baholanadi.

Shuningdek, adenomioz bilan differensial diagnostika yuqori darajada amalga oshiriladi hamda leiomyosarkoma bilan farqlashda sezgirlik 85–90% va spetsifiklik 90–96% ni tashkil etadi.

Xulosa Magnit-rezonans tomografiya bachadon miomasini aniqlashda yuqori diagnostik aniqlikka ega bo'lgan zamonaviy va ishonchli tasviriy usul hisoblanadi. U nafaqat tashxisni aniqlashtirish, balki differensial diagnostika va davolash taktikasini individual rejalashtirishda ham muhim o'rin tutadi.